

### OLIGOFRENIYA: AQLI ZAIF BOLALARINI O'QITISH VA TARBIYALASH

O'zbekiston respublikasi Qashqadaryo viloyati

Qarshi shahridagi ATMU.Defektologiya yo'nalishi

1-bosqich 137-23-guruh talabasi

Ravshanova Shaxnoza Abduqaxxorovna

**Annotatsiya:** Ushbu maqola oligofreniya turlari, oligofren bolalar tug'ilishiga sabab bo'luvchi omillar, farqli jihatlari, ularni o'qitish va tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratish, hamda hayotda o'z ish o'rniiga ega bo'lishi, buning uchun ularga yaratilgan imkoniyatlar haqida.

**Kalit so'zlar:** aqlan zaif, qoloqlik, demensiya, debillik, imbetsillik, idiotiya, pedagogik, psixologik, klinik, defektolog, markaziy nerv sistemasi, oligofrenopedagog.

Dunyoga kelgan har bir bola nafaqat o'z ota – onasi , atrofidagi yaqinlari , Vatani uchun ham sog'lom va barkamol bo'lishi , hayotda o'z o'rniiga ega , salohiyati yuk- sak shaxs bo'lib kamol topishi juda quvonarli shu bilan birga muhimdir. Shunday ekan kelajak avlodlarning , bolajonlarning sog'lom dunyoga kelishlari (nuqsonli bola bo'lganida ham uni imkon darajasida korreksiyalash , vaqtida qo'llash mumkin bo'l-gan chora tadbirlar bilan ) hayotda orzuymizdagi kabi hush odobli , ilmu salohiyati yuksak , el o'rtasida o'z o'rniiga ega insonlar bo'lib kamolga yetishlari uchun mas'uli-yat bilan sog'ligi , ta'lim-tarbiyasi , odob-axloqi masalasida o'z burchimizni vijdonan ado etaylik toki , butun dunyoda nuqsonli bolalar tug'ilishi 0 % ga tushib ketsin.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek “farzandlarimiz bizdan ko'ra boy, bilimli va baxtli bo'lishlari shart”.

Oligofreniya yunoncha “oligos” – kam , oz ; “fren” – aql ; so'zlaridan olingen bo'lib, esi past, aqli past degan ma'noni bildiradi. Oligofren bolalar markaziy nerv sistemasining organik kasalliklar natijasida bilish faoliyatining pasayib ketishi va bu nuqsonlar umrbod saqlanib qolishi bilan boshqa anomal bolalardan farqlanadi.

Aqliy qoloqliknini aniqlashda klinik , psixologik , va pedagogik bilim va tajribalar juda muhimdir. Klinik jihatdan – aqliy qoloqlik va bu markaziy nerv sistemasining qanday organik kasalliklarga chalinganligini (ona qornida ya'ni homila vaqtida onaning kasal-likka chalinganligi va yoki bolani uch yoshgacha og'ir hastaliklar bilan og'iganligi)ta'siri bo'lishi mumkin;

Psixologik jihatdan – bilish faoliyatining turg'un buzilganligi;(oligofreniya turlariga ko'ra, turlicha ko'rinishda bo'ladi).

Pedagogik jihatdan – o'zlashtirish qobiliyati past bo'lib , bola darslik materiallarini o'zlashtirishda qiyaladi va tez orada ulgurmovchilar safiga tushib qoladi;

Bolaning uch yoshidan keying turli sabablarga ko'ra aqlan zaiflik paydo bo'lsa, bu orttirilgan aqliy zaiflik ya'ni –demensiya deb ataladi. Demensiyaning oligofreniyadan farqi, demensiya tabiatan kuchayib boradi, oligofreniyada esa bu kuzatilmaydi. Ammo oligofreniya ham kelib chiqish sabablariga ko'ra , tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin.

Tug'ma oligofreniyaga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablar:

- Rezus faktorning to'g'ri kelmasligi;
- Xromasoma kasalliklari; kabilar.

Ona qornidaligi ya'ni bola homila vaqtida sabab bo'lishi mumkin bo'lgan omillar:

- Onaning turli kasalliklarga chalinishi;( og'ir virusli, tif, qizilcha kabi).
- Ona organizmidagi turli parazitlarning homilaga yuqishi;
- Homilaning shikastlanishi;
- Ota – onaning alkogolizmi;

Tug'ruq vaqtidagi quyidagi jarayonlar sabab bo'lishi mumkin:

- bolaning vakuum ekstraktor yoki shunga oxshash uskunalar bilan tortib tug'ilishiga ko'maklashish ;
- bola boshining siqilishi;
- bolaning tug'ruq yo'lidan uzoq o'tishi yoki aksincha , haddan tashqari tez kechgan tug'ruq natijasi;

Tug'ilgandan so'ng:

-uch yoshgacha bo'lgan davr ichida turli xil og'ir kasalliklar bilan kasallanishi; (meningit, meningoensefolit kabi).

-Markaziy nerv sistemasining shikastlanishi natijasida ham oligofreniya vujudga kelishi mumkin.

Oligofren bolalar vaziyatniyetarli darajada anglay olmaydilar, xatti –xarakatlarini vaziyatga qarab o'zgartira olmaydilar, ularda o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo'ladi. Shu va yuqorida aytib o'tilgani kabi jihatlarga ko'ra tarbiyachi va o'qituvchilarning bu kabi bolalarni boshqa animal bolalardan aajratib, ularni iloji boricha ertaroq tegishli muassasalarda ta'lim – tarbiya olishlarini taminlash muhim vazifalari hisoblanadi.

Oligofreniya uch darajada namoyon bo'ladi:

- 1.debillik;
- 2.imbetsillik;
- 3.idiotiya;

## Ilmiy elektron jurnali

Imbitsil va idiot (bular ham oz o'rnida og'ir va yengil turlarga bolinadi) bolalar (og'ir turiga kiruvchi) hattoki maxsus yordamchi maktab dasturi bo'yicha ham ta'lim olishga qodir emaslar, idiot bolalar hattoki o'z ota – onalarini ham tanimaydi.

Imbitsil bolalar idiot bolalarga qaraganda tuzukroq rivojlangan bo'lsa ham, mustaqil hayot kechira olmaydi.

Debillik – aqliy zaiflik oligofreniyaning eng yengil darajasi bolib , bunday bolalarni tashqi ko'rinishiga qarab sog'lom tengdoshlaridan ajratib bo'lmaydi. Balki shu sabab , ular o'qishni ommaviy maktabning 1-sinfidan boshlaydilar, ammo qisqa muddatda o'zlashtirish, faxm-farosat bobida qiynaladilar. Biroq ular yordamchi maktabga o'tib, darsliklarni o'zlashtirib chiqishsa, sanoat , ishlab chiqarish, mayishiy xizmat sohalarida oddiy turdag'i mehnat bilan shug'ullana oladilar. Yuqoridagilardan ko'rini turibdiki bu kabi bolalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, bunday bolalar ijtimoiy qo'llab quvvatlash, sifatli talim -tarbiya olish, me'yorda rivojlanayot-gan tendoshlari singari o'z qobilyatlari va imkoniyatlaridan foydalana oladigan inson bo'lib voyaga yetishlari xalq o'rtasida o'z o'rniga ega inson bo'lishlari ko'p jihatdan tarbiyachi, pedagoglar, atrofdagi yaqinlarining e'tibori va qo'llab –quvvatlashlariga bog'liqdir. Shu o'rinda bu kabi bolalar uchun faoliyat yuritadigan maxsus yordamchi maktab, uning maqsad va vazifalari to'g'risida qisqacha ma'lumot:

- o'quvchilarini atroficha pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish asosida butun ta'lim-tarbiya ishlarni rejalashtiriladi;

- aqli zaif o'quvchilarning jismoniy va ruhiy nuqsonlarini kuzatiladi;

- ularning harakat sistemalarini to'g'irlab boriladi;

- bilish faoliyatini shakllantiriladi;

Bular asosida o'quvchilarda xarakter va madaniy xulq-atvor mezonlari tarbiyalab bori-ladi. Oligofrenopedagog (aqli zaif bolalar bilan ishlaydigan pedagog) aqli zaif bola-larning ota-onalari, jamoatchilik bilan ham tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Maktabni bitirib ketgan hamma o'quvchilar bilan ham muntazam aloqa bog'lab, ketamnestik ma'lumotlar yig'ib boradi. Ularning ishga joylashishlariga yordam beradi. Bunda ularning maxsus yordamchi maktabda egallagan bilim ko'nikmalari yordamga keladi. Maxsus yordamchi maktabda ular barcha umumta'lim fanlari asoslari borasida ma'lum hajmda nazariy, amaliy bilimlar oladilar, kasbiy mehnat malakalarini egalaydilar.

Maxsus yordamchi maktab va maktabgacha muassasalarida ta'lim jarayonida tuzatish ishlari tizimini amalga oshiradi. Bu ishlar bolalardagi rivojlanishning potensial imkoniyatlariga asoslanib, aqli zaif bola shaxsini atroficha shakllantirish, bilish faoliyatlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Oligofren bolalar uchun (soddalashti-rilgan) ta'lim 9 yil olib boriladi. O'quv rejasiga o'zbek tili, matematika, tabiatshunos-lik, geografiya, tarix, jismoniy tarbiya , qo'l mehnati, ashula hamda yuqori sinflarda kasbiy mehnat darslari o'quv rejasining asosiy qismini egallaydi. Buning sababi bor, albatta. Maxsus yordamchi maktabni bitirayotgan o'quvchi bevosita ishlab chiqarishga, zavod, fabrikalarga, hayotga yo'llanma olayotganligi sababli yuqori sinflarda haftasiga bu mehnat turiga oltinchi, to'qqizinch sinflarda 10-12 soat , ba'zan undan ham ortiq beriladi.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Aqli zaif o'quvchilarga duradgorlik, chilangarlik, bichish-tikish ishlari, qishloq xo'ja-ligiga oid ishlar o'rgatib boriladi.

Mehnat ta'limi aqli zaif bolalarda nazariy bilimlarning o'zlashtirilishiga, ularning jismoniy rivojlanishlariga , bevosita hayotlarini boshlab yuborishlariga katta yordam beradi deyish mumkin.

Eng asosiysi boshqa tengdoshlari qatori bu kabi bolalarga ham mehr va g'amxorlik, kichik yutuqlarida ham rag'batlantirish, tartib va tozalikka o'rgatish (yaxshi muomila bilan) imkon darajasida bilim va ko'nikmalarни shakllantirish lozim .

Zero O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek eng katta boylik - bu aql -zakovat, ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik –bu bilimsizlikdir.

Oligofren bolalar bilan to'g'ri tashkil etilgan maxsus ta'lim-tarbiya ishlari natijasida defektologlar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb-hunarga o'rgatish borasida katta yutuqlarga erishmoqdalar.

Albatta bu yutuqlar zamirida yurtboshimiz tomonlaridan yuqoridagi fikrlarida o'z aksini topgan , talim-tarbiya ishlariga yuksak e'tiborlari hamda yurtimizda nuqsoni bor bolalarga yaratilayotgan imkoniyat va g'mxorliklari mujassamdir.

Ayni kunlarda oligofren bolalarni korreksiyalash, maxsus talim –tarbiya kabilalar natijasida nuqsonini bilinmaydigan holga keltira olish nafaqat mehnati samarasini ko'rgan defektolog, balki barcha-barchaning quvonchiga sabab bo'layotir

### Foydalanilga adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev."Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. O'zbekiston.
2. I.A.Karimov „Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori“-T. Sharq 1997-yil.
3. P.M.Po'latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova, Z.N. Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D. Sultonova. „Maxsus pedagogika“ Toshkent – 2014.
4. P.M.Po'latova „Oligofrenopedagogika“ Toshkent-2005.
5. <https://amclinic.ru>oligofreniya>